

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ADVOKATURA INSTITUTIGA OID

QONUNCHILIK TAHLILI

Saliyev Otabek Ilhom o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi

Sudyalar oliy maktabi mustaqil izlanuvchisi.

+998 97-743-12-27. Otabeksaliyev9@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15306463>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida advokatura institutining asoslari, manbalari, tashkiliy mexanizmlari va advokatlarning kasbiy etikasini har tomonlama o'rghanish amalga oshirilgan. Dissertationada qonun ustuvorligi va uning O'zbekiston advokaturasining zamонавиј modelini shakllantirishga ta'siri haqidagi g'oyalar tizimlashtirilgan. Shuningdek, magistrlik dissertationasida O'zbekistonda advokatlik kasbining muhim xususiyatlari va huquqiy tabiatining yaxlit ko'rinishi shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: Advokatura, huquqiy institut, advokatlik faoliyati, Qonunchilik tahlili, himoya huquqi, sud-huquq tizimi, advokat maqomi.

ANALYSIS OF LEGISLATION RELATED TO THE INSTITUTION OF ADVOCACY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract. This article provides a comprehensive study of the foundations, sources, organizational mechanisms of advocacy and professional ethics of attorneys in the Republic of Uzbekistan. The dissertation systematizes the ideas of the rule of law and its impact on the formation of a modern model of advocacy in Uzbekistan. The master's dissertation also provides an overview of the important features and legal nature of the legal profession in Uzbekistan.

Key words: advocacy, legal institution, legal practice, Legislation analysis, right to defense, judicial system, status of a lawyer.

АНАЛИЗ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА, КАСАЮЩЕГОСЯ ИНСТИТУТА АДВОКАТУРЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация. В данной статье проводится комплексное исследование основ, источников, организационных механизмов адвокатуры и профессиональной этики адвокатов в Республике Узбекистан. В диссертации систематизированы идеи верховенства права и его влияние на формирование современной модели адвокатуры в Узбекистане. В магистерской диссертации также представлен обзор важных особенностей и правовой природы адвокатуры в Узбекистане.

Ключевые слова: адвокатура, правовой институт, адвокатская деятельность, анализ законодательства, право на защиту, судебно-правовая защита, статус адвоката.

Avvalambor, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 116-moddasida ayblanuvchi himoyalanish huquqi bilan ta’minlanishi, tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanishi, fuqarolarga, korxona, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun advokatura faoliyat ko‘rsatishi, advokaturani tashkil etish va uning ish tartibi qonun bilan belgilanishi mustahkamlab qo‘yilgan.

Ushbu konstitutsion normaning mohiyati shundan iboratki, fuqarolar hamda tashkilotlar o‘zлari amalga oshirayotgan xatti-harakatlar to‘g‘risida to‘liq va yetarli ma’lumotga ega bo‘lgandagina fuqarolarning huquq va erkinliklari to‘la ravishda amalga oshiriladi, korxona, tashkilot va muassasalarning faoliyatida esa qonuniylik ta’minlanadi. Avvallari huquqiy yordam asosan huquqiy maslahatchilar hamda advokatlar tomonidan amalga oshirilardi. Bozor munosabatlari sharoitida fuqarolar, korxona, tashkilot va muassasalarning yuridik yordamga bo‘lgan ehtiyoji inobatga olingan holda ushbu yordam ularga turli davlat boshqaruvi organlari (masalan, adliya organlari), nodavlat notijorat tashkilotlari (Savdo-sanoat palatasi), jamoat birlashmalari va hatto turli tijoratchi tashkilotlar tomonidan ham ko‘rsatilayapti.

Huquqiy yordam huquqiy masalalar bo‘yicha maslahatlar va tushuntirishlar, qonun hujjatlari yuzasidan og‘zaki va yozma ma’lumotnomalar berish; huquqiy xususiyatdagi arizalar, shikoyatlar va boshqa hujjatlarni tuzish; sudda va boshqa davlat organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning vakili sifatida ishti-rok etish; jinoiy ishlar bo‘yicha dastlabki tergovda va sudda himoyachi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da’vogar va fuqaroviy javobgarning vakili sifatida ishtirok etish hamda tadbirkorlik faoliyatiga yuridik xizmat ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi. Huquqiy yordam haq evaziga yoki tekinga amalga oshirilishi mumkin. Davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar hamda turli jamoat birlashmalari asosan tekinga yuridik yordam ko‘rsatishadi. Advokatning huquqiy yordami uchun haq to‘lash advokat bilan mijoz o‘rtasida ixtiyoriy ravishda tuziladigan bitim (shartnoma) asosida amalga oshiriladi. Shaxs to‘lovga qobiliyat-sizligi sababli ko‘rsatilgan yuridik yordam haqini to‘lashdan ozod etilgan-da, jinoiy ishni ko‘rib chiqishda qatnashishga tayinlangan advokatning yuridik yordami uchun davlat hisobidan haq to‘lanadi.

“Advokatura to‘g‘risida”gi qonunda Advokaturaga huquqiy ta’rif berilib fuqarolik jamiyatning alohida huquqiy instituti sifatida e’tirof etilgan. Shuningdek, qonunda advokatlik faoliyatining tashkiliy shakllari, advokatlik faoliyatining turlari, advokatlik maqomini olish

tartiblari, malaka komissiyalar, advokat mehnatiga haq to‘lash, advokatning intizomiy javobgarligini tartibga soluvchi normalar belgilangan bo‘lsa, “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonunda esa, advokatning dahlsizligi, kasbiy faoliyatning kafolati va advokatning dahlsizligi, yuridik yordamni tashil etishning kafolatlari, advokturaning davlat bilan o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi normalar belgilandi.

“Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunda advokatlar hay’ati, advokatlik firmasi va byurosi notijorat tashkilot hisoblanuvchi tuzilma sifatida ularning huquqiy maqomi belgilangan. Shuningdek, “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 11-moddasiga asosan advokatura notijorat tashkiloti ekanligi nazarda tutilgan. Ta’kidlash joizki, Fuqarolik kodeksi 40-modda uchinchi qismining amaldagi tahriri yuridik shaxslarning kengaytirilgan, ya’ni ochiq ro‘yxatini nazarda tutgan bo‘lib, tijoratchi tashkilot bo‘lman yuridik shaxsqonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tashkil etilishi mumkinligi belgilangan. Advokatlik tuzilmalarining alohida ajratib ko‘rsatilishi esa, ularning soliq va boshqa munosabatlardagi o‘rni va rolini aniq belgilab bergen bo‘lar edi.¹

Qonunda, jumladan, advokatura faoliyatining prinsiplari va tashkiliy shakllari, malaka komissiyalarini tuzish va ularning faoliyati tartibi, Adliya vazirligining vakolatlari va boshqa masalalar belgilab berilgan. Qonunda dastlab Adliya vazirligi va uning hududiy bo‘linmalarini tomonidan advokatura faoliyatini litsenziyalash ko‘zda tutilgan bo‘lib, yuridik hamjamiyatning o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida advokatlarning yagona professional uyushmasini (2008-yilgi islohotgacha) tashkil etish bo‘yicha hech qanday qoidalar mavjud emas edi.²

O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga hamda Jinoyat protsessual kodeksining 87-moddasiga muvofiq, himoyachi ishga taalluqli axborotdan xabardor bo‘lgan shaxslarni so‘rovdan o‘tkazish va ularning roziligi bilan yozma tushuntirishlar olish huquqiga ega. Ushbu normadagi “ishga taalluqli axborot” jumlasini tahlil qilishdan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, advokat ushbu huquqlaridan faqatgina dastlabki tergov yoki sud muhokamasi bosqichlarida foydalanishi mumkin. Bundan tashqari, jinoyatga oid xabarni tekshirish huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi

¹ Davlyatov, V. X. (2020). Advokatlik tuzilmalarining yuridik tabiatini va ular huquqiy maqomining o‘ziga xos xususiyatlari. Review of law sciences, (1), 188-191. doi: 10.24412/2181-1148-2020-1-188-191. 4-bet

² Турдалиев Джамшид (2020). Институциональная независимость адвокатуры в узбекистане: проблемы и пути их решения. Review of law sciences, 3 (Спецвыпуск), 192-207. doi: 10.24412/2181-919X-2020-3-192-207

hisoblanishidan kelib chiqadigan bo‘lsak, advokat tomonidan olingan tushuntirishlar ish yuzasidan tergovga qadar tekshiruv harakatlari materiallariga qo‘sib qo‘yilmasligi mumkin.³

Fuqarolik qonunchiligi va O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonunining bugungi kundagi holatidan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, yuridik (huquqiy) xizmat hamda yuridik yordam tushunchalari aniqlashtirilmagan va to‘g‘ri tartibga solinmagan.

Qonunchilikda yuridik yordam va yuridik xizmat tushunchalari o‘rtasidagi chegara farqlanmagan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonunining 1-moddasida advokatura O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko‘rsatadi deb belgilab qo‘yilgan. Ushbu qonunning 11-moddasida advokatlar mehnatiga haq to‘lash masalasi bayon qilinib, yuridik xizmat uchun haq to‘lash advokat bilan ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) o‘rtasida ixtiyoriy ravishda tuziladigan bitim (shartnoma) asosida amalga oshiriladi deyilgan.

Fanda yuridik yordam yoki huquqiy xizmatlar nima ekanligi haqida umumiyl tushuncha mavjud emas. Qonunchilik ushbu tushunchalar o‘rtasidagi farqlarni nazarda tutmaydi. Huquqiy ta‘limotda qonunchiligidizning eng dolzarb muammolaridan biri – unifikatsiyani talab qiluvchi atamalarning ko‘pligi muhokama qilinayotganda, ushbu atamalar o‘rtasidagi munosabat masalasi ko‘rib chiqiladi.⁴

Shu bilan birga, ayrim mualliflar (T.I.Ilina, A.I.Muranov, D.V.Novak, G.K.Sharov) bu tushunchalar bir-biridan farq qilmasligini qayd etadilar.

Boshqalari esa, aksincha, ularga qarshi turib, o‘z pozitsiyasini asoslashga harakat qilmoqda. Masalan, V.Y.Panchenko “advokatura doirasiga kiradigan hamma narsa malakali yuridik yordamdir, bu sohaga kirmaydigan narsa esa yuridik xizmatlardir”, deb hisoblaydi.⁵ R.R.Lenkovskaya huquqiy va yuridik xizmatlarni malakali yuridik èrdamdan farqlash kerak, deb hisoblaydi.⁶

A.A.Salchak yuridik xizmatlar va yuridik yordam o‘rtasidagi farqni ko‘rib chiqib,

³ Chorieva D. Tergovga qadar tekshiruv bosqichida himoyachi ishtirokining huquqiy va protsessual masalalari // Yurist axborotnomasi – Vestnik yurista – Lawyer herald, № 5 (2020), B. 74-80

⁴ Азиза Сабирджановна Гуломова (2022). Адвокатлик фаолиятида юридик ёрдам кўрсатишни тартибга солиш хусусиятлари. Academic research in educational sciences, 3 (4), 348-357. doi: 10.24412/2181-1385-2022-4-348-357

⁵ Панченко В. Ю. Подходы к понятию «юридическая помощь» в современном отечественном правоведении / В. Ю. Панченко // Российский юридический журнал. — 2012. — № 1 (82). — С. 18-27.

⁶ Ленковская Р. Р. Понятие и правовая природа правовых и юридических услуг / Р. Р. Ленковская // Проблемы в российском законодательстве. — 2015. — № 4. — С. 36-38.

quyidagilarni qayd etadi: "...yuridik xizmat fuqarolik-huquqiy munosabatlarning obyekti bo'lib, yuridik xizmat ko'rsatishni tartibga soluvchi normalar fuqarolik-huquqiy institutni tashkil etadi. Yuridik yordam ko'rsatish esa konstitutsiyaviy, ijtimoiy huquqiy munosabatlar sohasida hisoblanadi".⁷ Har bir shaxsning malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanganligiga e'tibor qaratamiz. Y.V.Romanets yuridik xizmatlarni "yuridik ahamiyatga ega harakatlar, ya'ni huquq va majburiyatlarning paydo bo'lishi, o'zgarishi yoki bekor qilinishiga olib keladigan harakatlar" deb tavsiiflaydi.⁸ Biroq, amalda yuridik xizmatlar ko'rsatish ko'pincha muzokaralar, yuridik maslahatlar kabi yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq emas. Shunday qilib, yuridik xizmatlar ham haqiqiy, ham qonuniy harakatlarni, shuningdek ularning kombinatsiyasini ifodalashi mumkinligini hisobga olsak, ushbu tushuncha ko'rib chiqilayotgan hodisaning butun spektrini qamrab olmasligini tan olish kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

- 1) jamoat munosabatlarini tartibga solishda yuridik xizmat va yuridik yordam yuridik tabiatiga ko'ra har xil;
- 2) yuridik yordamni advokat bo'lgan maxsus vakolatli shaxs ko'satsa, yuridik xizmatlar esa qonun hujjatlari qoidalariga muvofiq muomalaga layoqatli shaxslar;
- 3) xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan yuridik xizmatlar fuqarolik huquqining obyekti;
- 4) yuridik xizmat tijorat, yuridik yordam ijtimoiy xususiyatga ega;
- 5) yuridik yordam jamoat manfaatlariga, yuridik xizmatlar esa ommaviy-huquqiy ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining 27.12.1996 yildagi "Advokatura to'g'risida"gi 349-I-soni qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 2-son, 48-modda; 2001-y., 1-2-son, 23-modda; 2003-y., 5-son, 67-modda; 2004-y., 1-2-son, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2005-y., 37-38-son, 280-modda; 2008-y., 52-son, 514-modda; 2009-y., 39-son, 423-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/497/2044-son; 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son; 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son, 11.09.2019-y., 03/19/566/3734-

⁷ Салчак А.А. Договор об оказании юридических услуг: особенности гражданско-правовой ответственности его участников : дис. канд. юрид. наук. М., 2006. 77-б.

⁸ Романец Ю.В. Общая характеристика договоров оказания юридических услуг (поручение, комиссия, агентирование) // Законодательство. 2001. № 4. 38-б.

son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 03.02.2022-y., 03/22/749/0101-son.

2. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 27 февралдаги 3-сонли “Қонунга хилоф равишда қуролга эгалик қилиш тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида”ги қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари миллий базасининг расмий веб-сайти – www.lex.uz
3. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 17 апрелдаги 11-сонли “Иқтисодиёт соҳасидаги жиноий ишлар бўйича суд амалиётида юзага келган айрим масалалар тўғрисида”ги қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари миллий базасининг расмий веб-сайти – www.lex.uz.
4. Турдалиев Джамшид (2020). Институциональная независимость адвокатуры в узбекистане: проблемы и пути их решения. *Review of law sciences*, 3 (Спецвыпуск), 192-207. doi:10.24412/2181-919X-2020-3-192-207.
5. Chorieva D. Tergovga qadar tekshiruv bosqichida himoyachi ishtirokining huquqiy va protsessual masalalari // Yurist axborotnomasi – Vestnik yurista – Lawyer herald. № 5 (2020), В. 74-80Усмоналиев М., Бакунов П. Талончилик учун жавобгарликни либераллаштириш муаммолари: Магистрантлар у-н ўкув қўлланма/ Усмоналиев М., Бакунов П.; ТДЮИ; Маъсул мухаррир: М.Х.Рустамбоев. - Т.: ТДЮИ, 2007.- 44 б.
6. Азиза Сабирджановна Гуломова (2022). Адвокатлик фаолиятида юридик ёрдам кўрсатиши тартибга солиш хусусиятлари. *Academic research in educational sciences*, 3 (4), 348-357. doi: 10.24412/2181-1385-2022-4-348-357.
7. Панченко В. Ю. Подходы к понятию «юридическая помощь» в современном отечественном правоведении / В. Ю. Панченко // Российский юридический журнал. — 2012. — № 1 (82). — С. 18-27.
8. Ленковская Р. Р. Понятие и правовая природа правовых и юридических услуг / Р. Р. Ленковская // Проблемы в российском законодательстве. — 2015. — № 4. — С. 36–38.
9. Салчак А.А. Договор об оказании юридических услуг: особенности гражданско-правовой ответственности его участников : дис. ... канд. юрид. наук. М., 2006. 77-b.
10. Романец Ю.В. Общая характеристика договоров оказания юридических услуг (поручение, комиссия, агентирование) // Законодательство. 2001. № 4. 38-b.